

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA MILLIY MADANIY ASPEKTDAN FOYDALANISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

G.Yusupova,
Nukus DPI O‘zbek tili kafedrası dotsenti
D.Kurbanbaeva,
Nukus DPI magistranti

O‘zbek tili ta’limida tilni birinchi ya’ni ona tili sifatida o‘zlashtirishni rivojlantirish hamda ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o‘qitish yuzasidan aniq strategik maqsad va vazifalarni belgilab olish, davr talabi hamda jamiyatda mavjud ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqib to‘g‘ri yondashuv va metodikadan foydalanish nafaqat tilshunos-pedagoglar, balki ushbu jarayonga bevosita va bilvosita mas’ul ziyolilar va jarayon ishtirokchilari zimmasidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Bugungi til ta’limida til o‘qitish yoki o‘zlashtirish jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida dunyo til ta’limidagi zamonaviy yondashuvlar va metodologiya, ta’lim vositalari, resurslari hamda imkoniyatlarini o‘zbek tili ta’limi jarayoniga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda o‘zbek tili ta’limida ham uzoq yillik grammatikaga yoki grammatikani tarjima qilishga asoslangan til o‘qitishdagi yondashuvdan hozirgi kunda jahon til ta’limi tajribasida keng amalda bo‘lgan kommunikativ yondashuvga o‘tish, til o‘zlashtiruvchi yoki o‘rganuvchining grammatik savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodologiyani isloh qilish va tildan muloqotda foydalanishga oid ustuvor maqsad va vazifalardan kelib chiqib nutqiy kompetentlikni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi metodik asoslarni ishlab chiqish yoki yangilash kun tartibidagi dolzarb masalaga aylandi.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda umuman olganda til ta’limida mohiyatan bir-biridan unchalik farqlanmaydigan, ammo ma’lum uslubiy-semantik ma’no va chegaralarga ega bo‘lgan hamda butun-qism, tur-jins munosabatlariga kirishadigan kalit tushunchalar mavjud. Bizgacha bu masalalarga nafaqat o‘zbek balki, jahon til ta’limi va pedagogikasida ko‘p va xub to‘xtalingan bo‘lsa-da, ushbu tadqiqotimizda oldimizga qo‘ygan maqsad va vazifalarga yetib borish yo‘lini yaqinlashtirish va oydinlashtirish uchun yana bir bor *usul, metod, metodika, metodologiya, texnika, yondashuv* kabi tushunchalarni bir paradigma doirasida tavsiflab ketishni maqsadga muvofiq deb bildik. Darhaqiqat, til ta’limiga oid har qanaqa ilmiy-nazariy tadqiqot hamda ularning reallikka tatbiqi ana shu o‘zak

masalalar atrofida aylanadi va ularni tor ixtisoslik doirasidagi xususiyatlarini tavsiflashga, tasniflashga, sinovdan o'tkazishga, qiyoslashga, tahlil qilishga, maqsaddan kelib chiqib yangilashga, moslashtirishga, qabul qilish yoki rad etishga yo'naltiriladi.

Usul – o'qitish texnikasi ya'ni sinfxonasida jarayonlarni ko'rsatadigan bosqich. Bu jarayon o'qituvchi va o'rganuvchi hamkorligida amalga oshiriladi. Til o'rgatish jarayonida sinfdagi vaziyatga qarab va o'qitish materialining hajmi hamda maqsadiga qarab bir nechta usullardan foydalanish mumkin. Usullar metodning qismi. Yondashuvlarni metodlar aniqlaydi, metodlar esa usullarni aniqlaydi.

Metod – o'qitish maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li¹. Metod aslida yunoncha „*metodos*“ so'zidan olingan bo'lib, „bilish va tadqiqot yo'li“, „nazariya“, „ta'limot“ kabi ma'nolarni bildiradi².

Metodika (yurt, „*methodike*“) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'limot³ — ta'lim berish metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandır.

Usul hamda metod butun qism munosabatida namoyon bo'lib, yaxlitlikda ta'lim maqsadiga erishish uchun xizmat qiladi.

Muayyan tilni xorijiy til sifatida o'qitishda madaniy aspektni o'rgatish uchun mos yondashuvni tanlashda yuqorida keltirib o'tilgan omillar bevosita va bilvosita ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda bir yondashuv ikkinchi biridan ustun ekanligini alohida ta'kidlanmaydi va o'qitish vaziyatidan kelib chiqib tanlash tavsiya etiladi.

Bevosita o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda foydalaniladigan yondashuvlarni tavsiflashdan oldin bu jarayonga aloqador bo'lgan bir qator xususiyatlarga to'xtalib o'tish joizdir. Xususan, o'zbek tilini xorij tili sifatida o'rganuvchilarni yosh va etnik xususiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflashimiz mumkin.

1. Maktab yoshidagi xorijliklar
2. Maktab yoshidagi vatandoshlar
3. Maktab yoshidagi qardoshlar
4. Katta yoshdagi xorijliklar
5. Katta yoshdagi vatandoshlar
6. Katta yoshdagi qardoshlar

Garchi ularning har biri o'ziga xos alohida xarakter xususiyatga ega hisoblansa-da, ular orasida O'zbekistonga kelib yoki xorijda yashab o'zbek tilini

¹ Xodjayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent. Standart-sano. 2017. 63-bet.

² O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — T.: „O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2003,— 5-jild, 613-bet.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. — T.: „O'ME“ Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 - 2-jild, 582-bet.

o'rganishni xohlovchi *maktab yoshidagi vatandoshlar* (Nyu-Yorkdagi Ziyo Art maktabi), *katta yoshdagi xorijliklar* (Xorijdagi oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rganuvchi tadqiqotchilar va boshqa soha vakillari, shuningdek turli iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijliklar hamda turli maqsadlar asosida o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganishni xohlovchi *katta yoshdagi qardoshlar* (turklar) tomonidan o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishga bo'lgan talab sezilarli darajada katta hisoblanadi. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniy bilim va ko'nikmalarni o'rgatish uchun lozim bo'lgan tavsiyaviy xarakterdagi yondashuv va metodlarni tasniflashda androgogik ta'lim ishtirokchilari bo'lgan katta yoshdagi qardoshlar va xorijliklar nazarda tutiladi. Ushbu guruhlar ham o'z navbatida mahalliy til muhitida turib madaniy bilim va ko'nikmalarni o'rganishi yoki xorijda yashab til o'rganishiga ko'ra ham farqlanadi. Til ta'limida yondashuv o'qitish amaliyotiga aloqador nazariy, falsafiy va asosiy tamoyillar to'plami sifatida olinadi⁴. Bir necha asrlik til ta'limi davomida madaniyat u yoki bu shaklda o'qitilgan va bunda bir qancha yondashuvlardan foydalanilgan va ularning ba'zilari hozir ham amalda. Umumiy tasnifga ko'ra madaniyatni o'qitishda ikki turdagi yondashuv ma'qullanadi. Birinchi yondashuvga ko'ra o'rganilayotgan til egalari madaniyatiga diqqat qaratiladi va bu ***bir madaniyatli yondashuv*** sifatida qabul qilinadi. Ikkinchi yondashuvda esa o'z va o'zga madaniyati qiyoslanadi va bu ***qiyosiy yondashuv*** hisoblanadi.

Bir madaniyatli yondashuv faqat o'rganilayotgan til madaniyatigagina e'tibor qaratgani bois samarasiz hisoblanadi va juda kam qo'llaniladi. Qiyosiy yondashuv esa til o'rganuvchining o'z madaniyati bilan o'rganilayotgan madaniyatni qiyosiy tahlil qilishga yo'naltiriladi. Til o'rganuvchi hech qachon o'z madaniyatidan qocha olmaydi va osonlik bilan ikkinchi bir madaniyatga ham murojaat qiladi. Til o'rganuvchining o'z madaniyatini rad etishi o'zligini rad etish demakdir⁵. Qiyosiy yondashuvga ikki tomonlama nuqtai nazardan yondashilganligi sababli birini biridan ustun qo'yish yoki qaysi biri yaxshi ekanligini baholash talabi qo'yilmaydi. Aksincha, til o'rganuvchi ma'lum bir narsani qilishning bir necha yo'llari mavjudligini o'rganadi. Qiyosiy yondashuvda dastlab o'xshashliklarga diqqat qaratilsa va tahlil qilinsa keyinga o'rinda farqlarga e'tibor beriladi.

Risager madaniyatni o'qitishda to'rtta yondashuv mavjud ekanligini ta'kidlaydi⁶ va bu yondashuvlar mazmunan yuqorida keltirib o'tilgan yondashuvlardan katta farq qilmaydi.

Katta yoshdagi qardoshlar uchun:

⁴ Longman Dictionary of Language Teaching and Applied linguistics. 2002.

⁵ M. Bryam. Cultural studies in foreign language education. Clevdon. Multilingual Matters. 1994

⁶ K. Risager. Language teaching and the process of European Integration. Cambridge University Press. Page: 242-254

1) *Madaniyatlararo yondashuv*. Mohiyatan qiyosiy yondashuvga o'xshab ketadi va o'z va o'zga madaniyatni qiyoslashga asoslanadi. Bu yondashuv 1980-yillarda faol hisoblangan, ammo ko'pmadaniyatli tillarni qamrab ololmaganligi sababli keyinchalik inkor etilgan.

2) *Ko'pmadaniyatli yondashuv*. Bir madaniyat tarkibidagi bir nechta etnik va lingvistik turfalikni anglatishga yo'naltirilgan yondashuv sanaladi. Bu yondashuvda madaniyatlar o'zaro qiyoslanmaydi, balki madaniy xilma-xillikni ochib berishga urg'u beriladi.

3) *Qorishiq madaniyatli yondashuv*. Bu yondashuv xalqaro til darajasidagi tillarga xos madaniyatni o'rganish uchun mo'ljallangan bo'lib bunda til lingua franka hisoblanadi va turli etnos va sotsiallarga mansub insonlar tomonidan foydalaniladi. Bunda madaniy aspektni o'qitishda hamma madaniyatlar uchun universal hisoblangan masalalarga qaratiladi va unda til va madaniyatning o'ziga xos tipik xususiyatlarga ega ekanligi rad etiladi.

4) *Mahalliy madaniy yondashuv*. Bu yondashuv mohiyatan yuqorida keltirib o'tilgan bir madaniyatli yondashuvga o'xshaydi. *Galloway* bir madaniyatli yondashuvning ham o'z ichida bir qancha tarmoqlarga bo'linishini eslatib o'tadi⁷. Bu tarmoqlar faktga asoslangan ba'zi madaniyatga oid bilimlarni anglatish uchun xizmat qiladi. Ammo madaniy ko'nikmaga yo'naltirilmaganligi sababli ham cheklangan o'rinlarda qo'llaniladi.

Katta yoshdagi xorijliklar uchun:

Tor ixtisoslikdagi yondashuv. Madaniyatni o'qitishda muayyan temalarga asoslanadi. Masalan: simvollar, qadriyatlar, urf-odatlar, sevgi, go'zallik, realizm, muhabbat, vatanparvarlik va boshqalar madaniyatning tarkibiy elementi sifatida tematik guruhlanadi. Tashqi tomondan bir tomondan bir madaniyatli yondashuvga o'xshab ko'rinsa-da, nazarda tutilgan madaniyatning ma'lum elementini batafsil yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi va til o'rganuvchida madaniy bilim va kompetensiyalar hosil bo'lishiga yordam beradi.

Global yondashuv. Bu yondashuv madaniyatlararo kesishuvda ahamiyatli bo'lgan umumiy mavzularga e'tibor qaratganligi bilan muhim hisoblanadi va xususiy mavzuga chuqur kirmaydi. Bunda asosan ta'lim, sport, sog'lom turmush tarzi, mashxurlar kabi mavzular qamrab olingan bo'lib, bu yondashuvdan asosan xorijiy tilni o'qitishga mo'ljallangan darsliklarda foydalaniladi. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatishga mo'ljallangan A2 darajada "O'zbekona" darsligida ana shu yondashuvdan foydalanganmiz yoki xorijliklar uchun turk tilini o'rgatishga

⁷ D. Galloway. *Motivating the difficult to teach*. Addison-Wesley Publication.

mo'ljallangan "Istanbul" darsligi ham mohiyatan ana shu yondashuv doirasida madaniyatni o'qitishni maqsad qilgan.

Muammoga yo'naltirilgan yondashuv. Bu yondashuvda til o'rganuvchi o'zga bir madaniyatning qaysidir jihatini o'zi o'rganadi, tadqiq etadi. Faqat bunda til o'rganuvchini qiziqтира olish, maqsadni to'g'ri anglatish va yo'naltira olish talab etiladi. *Seeyle* bunda til o'rgatuvchining ham ro'li juda katta ekanligini ta'kidlaydi.

5) *Guruhli yondashuv.* Bunda til o'rganuvchi izlanish olib borishi jihatidan yuqoridagi yondashuvga o'xshab ketsa-da, guruh shaklida yoki juftlikda bajarilishi bilan muammoga yo'naltirilgan yondashuvdan farq qiladi. Til o'rganuvchilar topilgan ma'lumotni guruh ichida jamlaydi, umumlashtiradi va o'z madaniyati bilan taqqoslaydi⁸.

6) *Ko'nikmaga yo'naltirilgan yondashuv.* Yuqorida keltirib o'tilgan barcha yondashuvlardan farqli ravishda bu amaliyot bilan bevosita bog'liq hisoblanadi va o'rganilayotgan madaniy muhitda yashamoqchi bo'lgan yoki yashayotgan til o'rganuvchilar uchun samarador hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi metodlarning deyarli barchasini o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayoniga tadbiq etish mumkin va tajriba-sinov jarayonida imkoniyatimizdan kelib chiqib ularning amaliy tatbiqi yuzasidan aniq texnologik xaritalar va dars ishlanmalarini tayyorlamoqdamiz. Qaysi jarayonda qaysi metoddan foydalanish til o'rganuvchi va o'rgatuvchilarning imkoniyati, sharoiti va xohishi va til o'rganish muhitiga bog'liqdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov X., Shodmonov E., Rafiev A., O'zbek tili. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. Toshkent "O'qituvchi".1995
2. Dilorom Tosheva. Atoulllo Ahmedov. Bukhara. Uzbek language for foreigners. 2020
3. Kurtulush O'ztopchu. Amerika Qo'shma Shtatlari. Kaliforniya universiteti 1994-yil.
4. Nigora Azimova. Elementary textbook, Georgetown Universiteti nashryoti. 2010.
5. O'zbekona. MOTUL jamoasi. Muharrir nashryoti. Toshkent 2020.
6. Rafiyev A. Tunjay O'zturk, Nuriddinova D., chet elliklar uchun o'zbek tili, Toshkent – 1997

Galloway, D. 1985. *Motivating the difficult to teach.* Addison-Wesley Publication
Geertz, C. 1975. *The Interpretation of Cultures.* London: Hutchinson.

⁸ B. Tomalin. S. Stempleski. Cultural awareness. Oxford University Press. 1993.